



O'QITUVCHILIK FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ SO'ZLAR LEKSIKASI

Jumayev Elmurod Bekpulatovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

dotsenti v.b, fffd (PhD)

elmurodjumayev272@gmail.com

Norsoatova Gulsevar Shavkat qizi

Axborot texnologiyalari menejment unevesiteti

norqobilovazamira2@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola o'qituvchilik faoliyatining lisoniy jihatlarini tizimli va chuqur tahlil qiladi. Pedagogik leksika nafaqat terminlar to'plami, balki ta'lim jarayonini boshqaruvchi, o'quvchi shaxsiyatini shakllantiruvchi, motivatsiyasini oshiruvchi va jamiyatning intellektual salohiyatini belgilovchi murakkab semantik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qituvchi nutqining kognitiv va regulyativ funksiyalari, zamonaviy neologizmlar, evfemizatsiya hodisasi, raqamli ta'lim sharoitidagi o'zgarishlar hamda real dars misollari batafsil tadqiq etilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchining professional kompetensiyasida lisoniy mahoratning muhim o'rnini isbotlaydi va amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi leksikasi, pedagogik diskurs, terminologik bo'shliq, evfemizatsiya, gibrid ta'lim, teskari aloqa, metakognitsiya, inklyuziv ta'lim, nutqiy strategiyalar.

Abstract. This article provides a systematic and in-depth analysis of the linguistic aspects of teaching. Pedagogical lexicon is considered not only as a set of terms, but also as a complex semantic system that governs the educational process, forms the personality of the student, increases his motivation, and determines the intellectual potential of society. The article examines in detail the cognitive and regulatory functions of teacher speech, modern neologisms, the phenomenon of



euphemization, changes in the conditions of digital education, and real lesson examples. The results of the study prove the important role of linguistic skills in the professional competence of the teacher and provide practical recommendations.

Keywords: teacher lexicon, pedagogical discourse, terminological gap, euphemization, hybrid education, feedback, metacognition, inclusive education, speech strategies.

Аннотация. В данной статье представлен систематический и углубленный анализ языковых аспектов обучения. Педагогический лексикон рассматривается не только как совокупность терминов, но и как сложная семантическая система, управляющая образовательным процессом, формирующая личность ученика, повышающая его мотивацию и определяющая интеллектуальный потенциал общества. В статье подробно рассматриваются познавательные и регулятивные функции речи учителя, современные неологизмы, феномен эвфемизации, изменения условий цифрового образования и приводятся примеры реальных уроков. Результаты исследования доказывают важную роль языковых навыков в профессиональной компетентности учителя и дают практические рекомендации.

Ключевые слова: лексикон учителя, педагогический дискурс, терминологический разрыв, эвфемизация, гибридное образование, обратная связь, метакогниция, инклюзивное образование, речевые стратегии.

KIRISH. Pedagogik faoliyat nafaqat bilim uzatish jarayoni, balki murakkab lisoniy muloqot tizimidir. Har bir kasb o'ziga xos leksikaga ega bo'lgani kabi, o'qituvchilik sohasi ham ming yillar davomida shakllangan boy va qatlamli terminologik fondga ega. O'qituvchi leksikasi jamiyatning intellektual darajasini aks



ettiruvchi, milliy va xalqaro tushunchalarni mujassam etgan tirik semantik tizimdir[1].

Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi faqat axborot yetkazuvchi emas, balki mediator, kognitiv murabbiy va psixologik qo'llab-quvvatlovchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, o'qituvchi va murabbiylar yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy tayanch bo'lib, ularning nutqi o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu holat o'qituvchi leksikasining semantik maydonini sezilarli darajada kengaytirdi. Inklyuzivlik (barcha o'quvchilarni qamrab olish), dars kuchi (darsning samaradorligi), teskari aloqa (feedback), gibril ta'lim, sinxron/asinxron muloqot kabi tushunchalar pedagogik diskursning ajralmas qismiga aylandi. Masalan, an'anaviy ta'limda "o'quvchi" so'zi oddiygina ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda "inklyuziv o'quvchi", "maxsus ehtiyojli o'quvchi" yoki "individual rivojlanish traektoriyasi" kabi murakkab iboralar qo'llanilmoqda. Ko'pgina o'qituvchilar kasbiy leksikani yetarli darajada egallamagani uchun ta'lim jarayonida "terminologik bo'shliq" yuzaga kelmoqda. Bu esa bilim uzatish zanjirining uzilishiga, o'quvchi motivatsiyasining pasayishiga va hatto psixologik jarohatlanishiga olib keladi.

Zamonaviy raqamli va gibril ta'lim sharoitida o'qituvchi leksikasi yetarli darajada moslashmagan. O'qituvchilik faoliyati leksikasini tizimli-struktura jihatdan tahlil qilish, uning lisoniy tabiatini yoritish va zamonaviy pedagogik diskursning lingvistik portretini yaratish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Vazifalar sirasiga quyidagilarni belgilab olamiz:

1. O'qituvchi leksikasining funksional turlarini aniqlash va misollar bilan ochib berish;



2. Zamonaviy neologizmlar va evfemizatsiya hodisalarini real dars misollari bilan tahlil qilish;
3. Pedagogik nutqning psixolingvistik ta'sirini chuqur ochib berish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Zamonaviy pedagogik diskurs va o'qituvchi leksikasi masalasini o'rganishda bir qator nazariy va amaliy tadqiqotlar mavjud. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavzu turli jihatdan yoritilgan bo'lsa-da, o'zbek tilidagi pedagogik leksikaning raqamli va gibril ta'lim sharoitidagi o'zgarishlari hali yetarli darajada tizimli tadqiq etilmagan. Birinchi navbatda, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda asosiy tayanchimizdir" (2020) asari pedagogik faoliyatning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib beradi. Muallif o'qituvchini nafaqat bilim yetkazuvchi, balki milliy g'oya va qadriyatlarning asosiy tarbiyachisi sifatida belgilaydi. Asarda o'qituvchi nutqining jamiyat intellektual darajasini shakllantirishdagi roli alohida ta'kidlangan. Biroq, asar ko'proq siyosiy va amaliy tavsiyalarga asoslangan bo'lib, leksik-semantik tahlilga to'xtalmaydi. Bu tadqiqotda mazkur asar o'qituvchi leksikasining ijtimoiy mas'uliyatini asoslash uchun ishlatildi. Ikkinchi guruhni tilshunoslik manbalari tashkil etadi. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2003) o'qituvchi leksikasining tarixiy va etimologik ildizlarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Lug'atda pedagogik terminlarning (masalan, "tarbiya", "ta'lim", "murabbiy") qadimiy turkiy va fors-tojik ildizlari ko'rsatilgan [2]. Bu manba o'qituvchi leksikasining "tirik tizim" ekanligini isbotlashga yordam beradi. Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1–5 jildlar, 2006–2008) zamonaviy pedagogik leksikaning semantik maydonini aniqlashda asosiy qo'llanma bo'ldi. Lug'atda "inklyuzivlik", "metakognitsiya" kabi yangi terminlarning izohi va qo'llanish doirasi berilgan (1-jild, B. 345–367). Bu manbalar orqali o'qituvchi leksikasining milliy va xalqaro qatlamlari solishtirildi. Uchinchi guruh – psixolingvistik



tadqiqotlar. L.S. Vygotskiyning “Myshleniye i rech” (1982) asari o‘qituvchi nutqining kognitiv funksiyasini nazariy asoslab beradi. Muallif fikr va nutqning birligini ta’kidlab, o‘qituvchi so‘zining o‘quvchi ongini shakllantirishdagi rolini ochib bergan [3]. Ushbu nazariya hozirgi tadqiqotda “kognitiv funktsiya” va “regulyativ funktsiya”ni tahlil qilishda asos bo‘ldi. O‘zbek olimi E.G. G‘oziyevning “Muloqot psixologiyasi” (2006) asari esa pedagogik muloqotning psixologik mexanizmlarini batafsil yoritadi. Muallif o‘qituvchi nutqining regulyativ va motivatsion ta’sirini, shuningdek, evfemizatsiya hodisasini o‘rganadi[4]. G‘oziyevning ishlari o‘zbek pedagogik diskursining mahalliy xususiyatlarini ochishda muhimdir. Xalqaro tajribani yoritish uchun H.D. Brownning “Principles of Language Learning and Teaching” [5] va J.C. Richards, T.S. Rodgersning “Approaches and Methods in Language Teaching”[6] asarlari jalb qilindi. Bu kitoblar til o‘qitish metodikasi va diskurs tahlilining zamonaviy yondashuvlarini taqdim etadi. Ular orqali o‘zbek pedagogik leksikasini xalqaro standartlar bilan solishtirish imkoniyati yaratildi. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan xulosa: mavjud tadqiqotlarda o‘qituvchi leksikasining umumiy funksiyalari va psixologik asoslari yoritilgan bo‘lsa-da, raqamli ta’lim (gibrid, sinxron/asinxron, Hemi, Moodle) sharoitidagi neologizmlar, evfemizatsiya va terminologik bo‘shliq masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagi usullar tashkil etadi:

1. Nazariy tahlil usuli – mavzuga oid adabiyotlarning tizimli sharhi va sintetik tahlili. Vygotskiy, G‘oziyev, Rahmatullayev, Mirziyoyev va xalqaro mualliflarning asarlari asosida nazariy baza yaratildi.
2. Leksik-semantik tahlil – O‘zbek tilining izohli va etimologik lug‘atlaridan foydalangan holda o‘qituvchi leksikasining semantik maydoni, etimologiyasi



- va neologizmlari o‘rganildi. Har bir terminning ma’no tarkibi, sinonimlari va antonimlari aniqlandi.
3. Diskurs-tahlili usuli – empirik material asosida amalga oshirildi. 2022–2025 yillarda Toshkent shahridagi 15 ta umumiy ta’lim maktabi va 3 ta oliy o‘quv yurtida o‘tkazilgan 50 ta real darsning audio- va videoyozuvlari (jami 120 soat) transkripsiya qilindi. Hemis, Moodle, Zoom va Google Classroom platformalaridagi o‘qituvchi-o‘quvchi muloqotlari ham tahlil qilindi.
 4. Qiyosiy-tahliliy usul – an’anaviy ta’limdagi leksika bilan raqamli/gibrid ta’limdagi leksika (10–15 yil oldingi va hozirgi holat) solishtirildi. Neologizmlar (gibrid ta’lim, teskari aloqa, metakognitsiya) va evfemizatsiya misollari qiyoslandi.
 5. Empirik kuzatish va misol tahlili – o‘qituvchilarning nutqiy strategiyalari (impuls, kooperatsiya, fiksatsiya) real darslardan olingan 120 dan ortiq konkret misollar bilan tasniflandi. Evfemizatsiya hodisasi 25 ta salbiy → ijobiy ifoda misollari bilan ochib berildi.

NATIJALAR

O‘qituvchi leksikasi ikki asosiy funksiyani bajaradi:

1. Kognitiv funksiya – Murakkab ilmiy tushunchalarni o‘quvchi yoshiga va tayyorgarlik darajasiga moslashtirib yetkazish. Bu jarayonda metafora, soddalashtirish va analogiyalar faol qo‘llaniladi. Masalan, biologiya darsida o‘qituvchi “DNK – bu hayotning ko‘k kitobi” deb metafora ishlatib, murakkab tushunchani osonlashtiradi. Yana bir misol: matematikada “teskari aloqa” orqali “Sening yechimingiz to‘g‘ri yo‘nalishda, lekin bu yerda quyidagi qadamni qo‘shsangiz yanada aniqroq bo‘ladi” deb tushuntirish hisoblanadi.



2. Regulyativ funksiya – Sinfdagi intizom, o‘quv jarayonini boshqarish va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish. Nutqiy strategiyalar orqali amalga oshiriladi.

Real dars misollari (nutqiy strategiyalar):

Impuls (diqqatni jalb qilish): “Diqqat qiling, hurmatli o‘quvchilar! Endi birgalikda yangi mavzuga o‘tamiz – bu bugungi kunning eng muhim savoli!” (5-sinf matematika darsi, Hemis platformasi).

Kooperatsiya (hamkorlik): “Keling, guruh bo‘lib tahlil qilamiz: har bir guruh o‘z fikrini 2 daqiqada taqdim etsin” (gibrid dars, Zoom).

Fiksatsiya (natijani mustahkamlash): “Endi natijani sarhisob qilamiz – kim nima yangi bilim oldi? Har biringiz bitta jumlada aytib bering” (tarix darsi).

Zamonaviy neologizmlar va ularning qo‘llanilishi:

Gibrid ta’lim: “Bugun gibrid dars o‘tkazamiz: birinchi 30 daqiqa sinxron Zoom orqali, keyin asinxron topshiriqni Moodle’ga yuklang” (real misol, universitet darajasi).

Sinxron va asinxron muloqot: “Sinxron muloqotda savollaringizni jonli ravishda so‘rang, asinxron qismda esa forumda yozib qoldiring” (Hemis platformasi).

Teskari aloqa: Oddiy “yaxshi” o‘rniga “Sizning inshoingizda kuchli tomon – chuqur tahlil, lekin grammatik xatolarni tuzatish uchun quyidagi qoidalarni qo‘llang” (ingliz tili darsi).



Metakognitsiya va akademik halollik: “O‘zingizni baholang: qaysi mavzuni yaxshi tushundingiz? Akademik halollik – bu o‘z ishingizni o‘zingiz qilishdir” (metakognitiv savol).

Evfemizatsiya hodisasi (salbiy tushunchalarni ijobiy ifodalash): Bu usul o‘quvchi psixologiyasini himoya qilish va motivatsiyani saqlashga xizmat qiladi. Aniq misollar:

1. “Ko‘p xato qilding” → “Senda o‘shish uchun katta imkoniyat bor, keling, birgalikda tuzatamiz”.
2. “Darsga tayyor emassan” → “Mavzuni chuqurroq o‘rganishingni kutaman – bu sizni yanada kuchli qiladi”.
3. “Bahong past” → “Bu mavzuda hali ko‘proq ishlash imkoniyatingiz bor, keyingi darsda yordam beraman”.
4. “Gapirmay o‘tiribsiz” → “Sizning fikringiz biz uchun juda muhim – hozir aytib bersangiz bo‘ladimi?”.
5. “Sinfda tartibsizlik” → “Keling, birgalikda qulay muhit yaratamiz, har biringizning hissangiz kerak”.

MUHOKAMA. O‘qituvchi leksikasi muttasil harakatdagi tirik tizimdir. U o‘tmishning boy merosi (klassik pedagogik terminlar) bilan kelajakning raqamli texnologiyalari o‘rtasidagi oltin ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. Lisoniy kompetensiya, evfemizatsiyadan o‘rinli foydalanish va zamonaviy neologizmlarni o‘zlashtirish o‘qituvchining professional o‘shining asosiy determinantlaridir.⁶

O‘qituvchi nutqining psixolingvistik kuchi beqiyos. “Inhibator” (to‘xtatuvchi) leksikadan (“xato qilding”, “tushunmading”) “stimulyator” (faollashtiruvchi) leksikaga (“imkoniyat bor”, “birgalikda o‘rganamiz”) o‘tish zamonaviy o‘qituvchining lisoniy-etik burchi hisoblanadi. Masalan, bir real darsda



evfemizatsiya qo‘llanilganda o‘quvchining ishtiroki 40% ga oshgani kuzatildi (kuzatuv ma’lumotlari).

Xalqaro tajribaga qiyoslaganda (Brown va Richards asarlari), o‘zbek pedagogik diskursida ham raqamli terminlar (Moodle, Hemis) tez sur’atlar bilan integratsiya bo‘lmoqda. Ammo terminologik bo‘shliq hali ham mavjud – ba’zi o‘qituvchilar “teskari aloqa”ni oddiy “javob” deb tushunishadi.

Amaliy tavsiyalar: O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslariga “Pedagogik diskurs va lisoniy strategiyalar” maxsus modulini (30 soat) kiritish; Raqamli platformalarda qo‘llaniladigan terminlarni standartlashtirish (O‘zMU va Xalq ta’limi vazirligi bilan hamkorlikda); Har bir maktabda “Evfemizatsiya va konstruktiv teskari aloqa” bo‘yicha oylik treninglar tashkil etish; O‘quvchilar bilan ishlashda nutqiy strategiyalarni baholash mezonlarini o‘qituvchi sertifikatitsiyasiga kiritish.

XULOSA. O‘qituvchilik faoliyati leksikasi o‘zbek tilining eng dinamik va ijtimoiy mas’uliyatli qatlamlaridan biridir. Lisoniy kompetensiyani oshirish orqali o‘qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki yangi O‘zbekistonning haqiqiy murabbiylari bo‘lishga qodir. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchi nutqi o‘quvchining nafaqat bilim darajasiga, balki shaxsiy motivatsiyasi, ruhiy barqarorligi va jamiyatning axloqiy immunitetiga bevosita ta’sir etadi. Ushbu tizimni rivojlantirish ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda asosiy tayanchimizdir. Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – B. 23–25.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Toshkent: Universitet, 2003. – B. 45–67.



3. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. Moskva: Pedagogika, 1982. – В. 156–178.
4. G‘oziyev E.G. Muloqot psixologiyasi. Toshkent, 2006. – В. 134–156.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. Pearson, 2014. – P. 256–278.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014. – P. 45–67.